

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga bag'ishlangan seminar tashkil etildi

O'zbekistonda 2020-yil "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan va ushbu yilda amalga oshiriladigan dolzarb masalalarni keng muhokama qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Prezidiumida "Raqamli smart iqtisodiyoti kontsepsiyasi" mavzuga bag'ishlangan ilmiy seminar o'tkazildi. Unda FA ilmiy-tadqiqot muassasalari yetakchi olimlari, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.



Seminarda O'zbekiston Respublikasi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Biznes va boshqaruv respublika oliy maktabi bo'lim boshlig'i, prof. Shoxmansur Shoxa'zamiy raqamli smart iqtisodiyotning ilmiy kontsepsiyasi, "Raqamli O'zbekiston-2030" Milliy dasturi rejasining loyihasi va uning kontekstida Prezidentning raqamli smart iqtisodiyot universitetini 5.0 tashkil etish loyihasi haqida ma'lumot berdi.



Seminar so'nggida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.